

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 1 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 9, НОМЕР 1

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 9, ISSUE 1



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2026-1>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Ўзбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шнукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масъул қотиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

Мўминова Маъсума Ғолиб қизи
ф.ф.д., (PhD) вб. доцент

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистан)

Якуб Умар оғли
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джўраев Маматкул
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Куренов Рахиммамед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Джеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Балтабаев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Дўстмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Сиддикова Ирода
д.ф.н., профессор (Ўзбекистан)

Шнукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистан)

Муминова Масума Ғолиб қизи
PhD и.о. доцент

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammadov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

Mo'minova Ma'suma
PhD Acting Docent
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Tursunova Parvina Mamurjonovna NUTQIY HUSHMUOMALALIK IFODALANISHIDA YOLG‘ON ISHLATILISHINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI (ISPAN TILI MATERIALLARI ASOSIDA).....	5
2. Умурова Гузал Хотамовна ПСИХОЛОГИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТВОРЧЕСТВА - ЗНАЧИМОСТЬ КОМПЛЕКСНОГО ПОДХОДА К ИЗУЧЕНИЮ И ОРГАНИЗАЦИИ ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	10
3. Даминова Фазода Ирисовна ТЕОРЕТИКО-ИСТОРИЧЕСКИЕ И МИРОВОЗЗРЕНЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ДРЕВНЕРУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ.....	15
4. Рахматова Гулнора Турсиновна ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ: РЕЗУЛЬТАТЫ КОРПУСНОГО АНАЛИЗА.....	22
5. Усманова Салиха Юлдашевна ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ВВОДНО-МОДАЛЬНЫХ ЕДИНИЦ В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ.....	32
6. Ибаев Анвар Журабекович ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ОККАЗИОНАЛЬНАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЁ ТИПЫ.....	41
7. Т.А.Эргашева СОЛИҚ РЕЗИДЕНТИ ТУШУНЧАСИНИНГ ХАЛҚАРО ҲУЖЖАТЛАРДАГИ ПРАГМАЛИНГВИСТИК ТАҲЛИЛИ.....	47
8. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	52
9. Davlatova Hulkaroy Uktamovna RAQAMLI MUHITDA BOLALIK: ZAMONAVIY SHAROITDA TIL O‘ZLASHTIRISH OMILLARI.....	58
10. Abdunazarova Maftuna Fakhriddinovna PRAGMATIC AND FUNCTIONAL ANALYSIS OF SPEECH ACTS IN DIALOGIC DISCOURSE.....	64
11. Nomozov Abdiaziz Mustaqimovich ARAB VA INGLIZ MUROJAAT SHAKLLARINING QIYOSIY-PRAGMATIK TAHLILI: ZAMONAVIY KOMMUNIKATSIYA KONTEKSTIDA.....	71
12. Nilufar Abduraxmonova, Abdullayeva Shakhnoza Rakhimjon qizi ONTOLOGICAL MODELING INFORMATION TECHNOLOGY TERMS IN UZBEK.....	77
13. Aybibi ISKANDAROVA O‘ZBEK KORPUSHUNOSLIGIDA PARALLEL KORPUSGA OID TADQIQOTLAR VA ULARNING LINGVISTIK AHAMIYATI.....	87
14. Abdullaeva Sanobar Bakhrillaevna THEORETICAL STUDY OF PHRASEOLOGY IN THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM.....	83
15. Воҳидов Абдувахоб САМАРҚАНД ТОЖИКЛАРИ ШЕВАСИ ФРАЗЕОЛОГИК ЖУФТ ТАРКИБЛАРИ ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР.....	99
16. Усманова Салиха Юлдашевна, Мирзаева Шахло Ризаевна ИЗУЧЕНИЕ ГЛАГОЛОВ, СПОСОБНЫХ ПРИНИМАТЬ ПРЕДИКАТНЫЙ АКТАНТ.....	104

17. Zaynutdinova Durdona Asatovna ARTIFICIAL INTELLIGENCE AS A TOOL FOR DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH LANGUAGE LEARNERS (Evidence from EFL Settings in the Republic of Uzbekistan).....	109
18. Atabayeva Zarnigor Bakhran kizi THE DEMONIZATION OF DORIAN GRAY: AESTHETICISM, MORAL DECLINE, AND THE DUALITY OF HUMAN NATURE IN VICTORIAN LITERATURE.....	118
19. Ochilova Noila Farmonovna O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA “OTA”KONSEPTINING TALQINI.....	122
20. Abduraxmonova Sohiba Aktam qizi BOLALAR NUTQINING O‘RGANILISHI (ESKI NAZARIYALARDAN ZAMONAVIY YONDASHUVLARGACHA).....	126
21. Sharipov Raufjon Elmurod o‘g‘li AKADEMIK G‘ANIJON ABDURAHMONOVNING “TARIXIY SINTAKSIS” ASARIDA QO‘SHMA GAPLAR EVOLYUTSIYASI.....	130
22. Said-Axmedova Shoxista Nuritdinovna AGENTLIK TUSHUNCHASINING LINGVISTIK TADQIQI.....	135
23. Nilufar Abduraxmonova, Nilufar Botirova SIYOSIY SOHAGA DOIR TARJIMA LUG‘ATINI SHAKLLANTIRISHDA PARALLEL MATNLARNING KONTEKSTUAL TAHLILI.....	141
24. N.M.Shamuradova INGLIZ TILIDA SO‘Z ODOBINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING DISKURSIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI.....	148
25. Sevinch Sherzodovna Xolmirzayeva ITALYAN TILIDAGI KO‘P MA‘NOLI SO‘ZLARNING TARJIMADA MA‘NO FARQLANISHI.....	152
26. Башарова Лейла РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ И ВОСПРИЯТИЕ АНТРОПОМОРФНЫХ ЖИВОТНЫХ В ДЕТСКИХ КНИГАХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА СОЗНАНИЕ И РАЗВИТИЕ РЕБЕНКА.....	158
27. Ivanova Alena Yadmagieвна TACTILE GESTURES IN CHINESE EVERYDAY COMMUNICATION: TYPOLOGY, FUNCTIONS, CULTURAL MARKEDNESS.....	165
28. Ozoda Tojiboyeva, Xasanova Shaxodat Xamza qizi O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA HADISLARDAN FOYDALANISH AN‘ANASI.....	175
29. Asqar Abdullaev SYNTACTIC STRUCTURES: ESSENCE, TYPES, AND STUDIES IN GLOBAL LINGUISTICS.....	180
30. Nuraliyeva Ozoda Narbayevna FOLKLOR MATNLARIDA IQLIM HODISALARINING RAMZIY BADIYATI.....	185
31. Сабина Авазжоновна Махмудова ОСОБЕННОСТИ РЕПРЕЗЕНТАЦИИ КОНЦЕПТА «ВОЙНА» В РОМАНЕ Р. ОЛДИНГТОНА «СМЕРТЬ ГЕРОЯ».....	193
32. Nasrullayev Javohirxon Ravshanxonovich RAQAMLI HUQUQIY MULOQOTDA YURIDIK TERMINLARNING IJTIMOY-LISONIY MOSLASHUVI.....	200



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz


UDK: 81'27(575.1) + 81'42

Abdunazarova Maftuna Fakhriddinovna

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

Faculty of Journalism and Uzbek Philology, PhD Candidate

Email: abdunazarova_m@nuu.uz

PRAGMATIC AND FUNCTIONAL ANALYSIS OF SPEECH ACTS IN DIALOGIC DISCOURSE <https://doi.org/10.5281/zenodo.20814828>**ABSTRACT**

In this article, the pragmalinguistic features of speech acts within the framework of dialogic discourse are analyzed. It examines the interaction of illocutionary and perlocutionary forces arising in dialogic speech based on the basic principles of speech act theory (the concepts of J. Austin and J. Searle). Also, using examples, the use of such functional types of speech acts as directive, representative, expressive, commissive, and declarative in dialogic discourse is shown. The study highlights the role of pragmatic context, communicative purpose, and social relations between participants in the formation of speech acts. The conclusions of the article have important theoretical and practical significance in the pragmalinguistic analysis of dialogic discourse.

Key words: speech act, dialogic discourse, pragmalinguistics, illocutionary force, perlocutionary influence, communicative intention, types of speech acts, discourse analysis.

Абдуназарова Мафтуна Фахриддиновна

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

докторант факультета Журналистики и узбекской филологии

E-mail: abdunazarova_m@nuu.uz

ПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ И ФУНКЦИОНАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕЧЕВЫХ АКТОВ В ДИАЛОГИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ**АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируются прагмалингвистические особенности речевых актов в рамках диалогического дискурса. В ней рассматривается взаимодействие иллокутивных и перлокутивных сил, возникающих в диалогической речи, на основе основных принципов теории речевых актов (концепции Дж. Остина и Дж. Серла). Также на примерах показано использование таких функциональных типов речевых актов, как директивный, репрезентативный, экспрессивный, коммиссивный и декларативный в диалогическом дискурсе. В исследовании подчеркивается роль прагматического контекста, коммуникативной цели и социальных отношений между участниками в формировании речевых актов. Выводы статьи имеют важное теоретическое и практическое значение в прагмалингвистическом анализе диалогического дискурса.

Ключевые слова: речевой акт, диалогический дискурс, прагмалингвистика, иллюкутивная сила, перлокутивное влияние, коммуникативное намерение, типы речевых актов, анализ дискурса.

Abdunazarova Maftuna Faxriddinovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,
Jurnalistika va o'zbek filologiyasi fakulteti, tayanch doktoranti
E-mail: abdunazarova_m@nuu.uz

DIALOGIK DISKURSDA NUTQIY AKTLARNING PRAGMALINGVISTIK VA FUNKSIONAL TAHLILI

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada dialogik diskurs doirasidagi nutqiy aktlarning pragmalingvistik xususiyatlari tahlil qilingan. Unda nutqiy akt nazariyasining asosiy tamoyillari (J. Ostin va J. Serl konsepsiyalari) asosida dialogik nutqda yuzaga keladigan illokutiv va perlokutiv kuchlarning o'zaro ta'siri o'rganilgan. Shuningdek, dialogik diskursda nutqiy aktlarning direktiv, reprezentativ, ekspressiv, komissiv va deklarativ kabi funksional turlarining qo'llanilishi misollar yordamida ko'rsatib berilgan. Tadqiqot nutqiy aktlarning shakllanishida pragmatik kontekst, kommunikativ maqsad va ishtirokchilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning o'rnini yoritib beradi. Maqola xulosalari dialogik diskursni pragmalingvistik tahlil qilishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: nutqiy akt, dialogik diskurs, pragmalingvistika, illokutiv kuch, perlokutiv ta'sir, kommunikativ niyat, nutqiy akt turlari, diskurs tahlili.

Kirish. Til jamiyatning ijtimoiy va madaniy tajribasini ifodalash hamda uzatishda asosiy vosita hisoblanadi. Hozirgi tilshunoslikda til faqat tizim sifatida emas, balki real kommunikativ faoliyat — diskurs doirasida talqin etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, pragmalingvistika nutqda ma'no shakllanishi va uning kontekstga bog'liqligini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutqiy akt nazariyasi ushbu yo'nalishning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, u nutqni amaliy harakat sifatida izohlaydi. J. Ostin[5] va J. Serl ishlari nutq orqali inson faqat ma'lumot bermasdan, balki turli kommunikativ vazifalarni bajarishini ko'rsatadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda nutqiy aktlar ko'proq alohida birliklar sifatida ko'rib chiqilib, ularning dialogik muhitdagi o'zaro bog'liqligi yetarlicha

Aslida, dialogik diskursda nutqiy aktlar ketma-ket va o'zaro ta'sirda yuzaga keladi. Ularning mazmuni va ta'sir kuchi kontekst, ishtirokchilarning roli hamda yashirin ma'no qatlamlari bilan belgilanadi. Shu sababli nutqiy aktlarni diskursiv va pragmatik jihatdan kompleks yondashuv asosida o'rganish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi dialogik diskursda nutqiy aktlarning pragmalingvistik xususiyatlarini aniqlash va ularning kommunikativ jarayondagi o'rnini yoritishdan iborat..

- **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review).** Nutqiy akt - ma'lumot uzatish, aloqa o'rnatish yoki tinglovchiga ta'sir ko'rsatish maqsadida muayyan fikrlar aytiluvchi muloqot jarayonidir. Nutqiy akt nazariyasi ilk bor ingliz filosofi **J. Ostin[5]** tomonidan ilgari surildi. U asosiy e'tiborini nutqiy akt nazariyasini ishlab chiqishga, xususan, nutqiy aktni shakllantiruvchi performativ fe'llar tahliliga hamda nutqiy akt turlarini tasniflash masalasiga qaratdi.

J. Ostinning o'limidan so'ng nashr etilgan «How to do things with words» kitobida olimning bu masalaga oid qarashlari jamlandi. Nutqiy akt nazariyasi keyinchalik uning shogirdi Jon Serl tomonidan rivojlantirilgan va amerikalik tilshunos Xaym Pursel tomonidan kengaytirilgan. Asosiy g'oya shundaki, nutqiy akt nafaqat o'zining ma'no jihatiga (so'zlarning lug'aviy ma'nosi), balki kontekst va so'zlovchining niyatlari bilan belgilanadigan vazifaviy maqsadga ham ega. Bundan tashqari, dialogik diskursda nutqiy aktlar ijtimoiy rollar va hokimiyat munosabatlari bilan chambarchas aloqada shakllanadi.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlarda nutqiy aktlar asosan uch nuqtayi nazardan talqin etiladi: illokutiv kuch va strukturaviy tasnif (Ostin, Serl);

implikatura va yashirin ma'no mexanizmlari (Grays, Levinson);

diskurs va ijtimoiy kontekst bilan integratsiya (van Deyk).

Biroq bu yondashuvlar ko'pincha alohida nazariy paradigmalarda doirasida tahlil qilingan va ularning dialogik diskursdagi murakkab o'zaro ta'siri yetarlicha tizimlashtirilmagan.

- **Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).** Tadqiqotda dialogik diskursda nutqiy aktlarning pragmatik xususiyatlarini aniqlash maqsadida kompleks yondashuv qo'llanildi. Nazariy asos sifatida J. Ostinning[5] nutqiy aktlar nazariyasi hamda J. Serlning illokutiv aktlar tasnifi qabul qilindi.


Tahlilda diskurs, pragmatik va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar nutqiy aktlarning funksional xususiyatlari, illokutiv kuchi va perlokutiv samarasi hamda ularning kontekst bilan bog'liqligini aniqlashga xizmat qildi.

Tadqiqot materiali sifatida badiiy dialogik matnlar, xususan, Erkin A'zam asarlaridan olingan nutq namunalari foydalanildi.

—**Tahlil va natijalar (Analysis and results).** Nutqiy akt so'zlovchining muayyan kommunikativ maqsadiga bo'ysundirilgani bois uning turli ko'rinishlari farqlanadi. Xususan, buyruqni ifoda etuvchi nutq ko'rinishi buyruq nutqiy aktini, so'roqni ifoda etuvchi nutq parchasi so'roq nutqiy aktini, istakni ifodalovchi nutq ko'rinishi istak nutqiy aktini hosil qiladi. Manbalarda nutqiy aktning xabar qilish, *istakni bayon etishga qaratilgan nutqiy akt, majburiyat akti, ijtimoiy etiket ko'rinishlari, emosionallikni ifodalovchi aktlar, ma'qullovchi, taqiqlovchi, nutqni to'xtatuvchi akt* kabi turlari qayd etiladi.

J.Ostin[5] nutqiy aktda quyidagilar amalga oshirishini bayon qilgan: umume'tirof etgan til kodiga mansub aniq tovushlarni talaffuz etish; ushbu tilga mansub so'zlardan grammatik qoidalar asosida jumla tuzish; jumlaning mazmun, referensiya va boshqalar bilan ta'minlash; nutqiy qo'llanishlarni hosil qilib, voqelik bilan muvofiqlashtirish; nutqiy qo'llanishlarni illokutiv aktga aylantiruvchi muayyan maqsadga yo'naltirish; kerak bo'lgan natijaga erishish, adresat ongiga yoki xulqiga ta'sir ko'rsatish, yangi nutqiy vaziyatni yaratish.

1-rasm. Nutqiy akt turlari (J. Ostin klassifikatsiyasi asosida)




Izoh: Ushbu sxemada J. Ostin[5] tomonidan ishlab chiqilgan nutqiy aktlar nazariyasi tizimli ravishda aks ettirilgan. Unda nutqiy aktlarning uch asosiy turi — lokutiv, illokutiv va perlokutiv aktlar o'zaro bog'liqlikda ko'rsatilgan bo'lib, ayniqsa illokutiv aktlarning ichki tasnifi besh guruhga (verdiktivlar, ekzersitivlar, komissivlar, bexabitivlar va ekspozitivlar) ajratilgan holda berilgan. Diagramma nutqiy aktlarning ierarxik tuzilishini va ularning kommunikativ jarayondagi funksional o'rnini yoritadi.

J. R. Serl (1969, 1979) Ostin konsepsiyasini kengaytirib, illokutiv aktlar tipologiyasini ishlab chiqdi. Serl nutqiy aktning muvaffaqiyatlilik mezonlarini belgilab, uning pragmatik voqelanishini me'yoriy tamoyillar asosida izohladi. Shu tariqa, nutqiy aktlar nafaqat semantik tuzilma, balki ijtimoiy aloqalar mahsuli ham ekani asoslab berildi.

2-rasm. Nutqiy akt turlari (J. Serl klassifikatsiyasi asosida)

NUTQIY AKT TURLARI (J. Searle klassifikatsiyasi asosida)



Izoh: Mazkur sxemada nutqiy aktlarning pragmatik tasnifi aks ettirilgan bo'lib, u J. Serl (1976) tomonidan taklif etilgan nazariyaga asoslanadi. Unga ko'ra, nutqiy aktlar kommunikativ maqsad va illokutsion kuchiga qarab besh asosiy turga ajratiladi: assertivlar (axborot berish va tasdiqlash), direktivlar (tinglovchini harakatga undash), komissivlar (so'zlovchining majburiyat olishi), ekspressivlar (hissiy holatni ifodalash) hamda deklarativlar (ijtimoiy-huquqiy holatni nutq orqali o'zgartirish). Ushbu tasnif dialogik diskursni pragmatik tahlil qilishda nutq birliklarining funksional xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Nutqiy akt nazariyasining keyingi rivoji implikatura va hamkorlik tamoyili tushunchalari bilan bog'liq. H. P. Grays[12] muloqot jarayonida yuzaga keladigan yashirin ma'nolarni izohlash uchun hamkorlik tamoyili va uning maksimlarini (miqdor, sifat, munosabat va usul) taklif qildi. Grays nazariyasi nutqiy aktning bevosita ifodalanmaydigan, biroq kontekst orqali anglashiladigan qatlamlarini tahlil qilish imkonini yaratdi.

S. Levinson (1983) pragmatika doirasida presuppozitsiya, deysis va implikatura tushunchalarini tizimlashtirib, nutqiy aktlarni kontekstual talqin bilan bog'ladi. Levinson yondashuvida nutqiy akt mustaqil birlik sifatida emas, balki kommunikativ vaziyatga integratsiyalashgan hodisa sifatida talqin etiladi. Bu esa nutqiy aktlarni diskurs sathida o'rganish zaruratini kuchaytiradi.

Diskurs nazariyasi doirasida T. A. van Deyk (1985, 1997) nutqni ijtimoiy-kognitiv hodisa sifatida tushuntirib, makrostruktura, superstruktura va kontekst modeli tushunchalarini taklif etdi. Van Deykning ijtimoiy-kognitiv yondashuvi nutqiy aktlar shunchaki individual hodisa bo'lmay, balki ijtimoiy bilimlar va mafkura tizimlari bilan ham bog'liqligini ko'rsatadi.

Nutqiy akt muammosi M.Hakimov tomonidan ham o'rganildi. U nutqiy akt ko'rinishlarini quyidagicha tasnifladi: **1. Rerezentativ yoki xabar nutqiy akti. 2. Majburiyat aktlari. 3. Ekspressiv aktlar. 4. Deklarativ akt.**

Sh.Safarovning fikricha, "nutqiy akt so'zlovchining ma'lum muhitda, aniq maqsadda tinglovchiga lisoniy murojaatidir", "nutqiy akt – ma'lum bir gapning aniq muloqot muhitida talaffuz etilishidir", "nutqiy akt – muloqot uchun "qurilish materialidir", u kommunikativ jarayon mantiqiy davomlilikini aks ettirmaydi".

Rus tilshunosligida nutqiy faoliyat va nutqiy akt masalalari V.N.Zabavnikov, A.A. Leontyev, A.N.Baranov, G.Ye.Kreydlin, I.N.Gorelov, S.A.Suxix va boshqalar tomonidan o'rganildi, bu masaladagi mavjud qarashlar umumlashtirildi va to'ldirildi.

Mavjud tadqiqotlarda nutqiy aktlar asosan alohida gaplar yoki alohida nutq birliklari sifatida ko'rib chiqilgan. Illokutiv kuch va perlokutiv ta'sir, asosan, struktur-semantik mezonlar asosida tavsiflangan bo'lsa-da, ularning dialogik diskursdagi dinamik va strategik tabiati yetarlicha o'rganilmagan. Xususan, nutqiy aktlarning kommunikativ strategiyalar, ijtimoiy rollar va kontekst modeli bilan integrativ munosabati tizimli ishlab chiqilmagan.

Bundan tashqari, Grisning [12] implikaturalari va Serling [22] illokutiv tasnifi o'rtasidagi vazifaviy munosabatlar dialogik jarayon doirasida yaxlit model sifatida o'rganilmagan. Nutqiy aktlarning presuppozitsiya va implikasiya qatlamlari ko'pincha diskursiv daraja bilan aloqada tahlil qilinmasdan, alohida pragmatik hodisalar sifatida ko'rib chiqilgan. Shuning uchun ham mavjud ilmiy adabiyotlarda dialogik diskursda nutqiy aktlarning ko'p qatlamli (illokutiv-perlokutiv-kognitiv-ijtimoiy) va har tomonlama rivojlangan modeli mavjud emas. Ushbu tadqiqot pragmatolingvistika va diskurs tahlili kesishmasida nutqiy aktlarni integrativ model yordamida talqin qilish orqali ushbu nazariy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

NAZARIY MODEL (integrativ pragma-diskursiv model)

Taklif etilayotgan model nutqiy akti to'rt o'lovli tizim sifatida talqin qiladi:

1-jadval. Nutqiy aktlarning integrativ pragma-diskursiv modelining ko'p darajali tuzilishi

Daraja	Tavsif	Asosiy tushunchalar	Aloqa dinamikasi
Lingvistik	Rasmiy til va asosiy ma'no	Nutqiy tuzilish, grammatika, semantika	Aloqa asosi
Pragmatik	Maqsad va yashirin ma'nolar	Illokutiv kuch, presuppozitsiya, implikatura	Kontekstga bog'liq ma'noning talqini
Diskursiv	O'zaro aloqalarni boshqarish	Kommunikativ strategiya, taktika, o'zaro ta'sir zanjiri	O'zaro hamkorlik oqimi va maqsadlari
Ijtimoiy-kognitiv	Ijtimoiy bilimlar va kontekst	Rol, maqom, kontekst modeli, ijtimoiy bilimlar	Yuqoridan pastga yo'naltirish va aloqani shakllantirish

1-jadval. Nutqiy aktlarning lingvistik, pragmatik, diskursiv va ijtimoiy-kognitiv jihatlar bo'yicha qanday tuzilganligini ko'rsatadi.

Nutqiy akt shaklan quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$NA = f(LT + IPK + DI + IKK)$$

Bunda:

LT – Lisoniy tuzilma

IPK – Illokutiv-pragmatik kuch

DI - Diskursiv interaksiya

IKK – Ijtimoiy-kognitiv kontekst

Masalan: Orol bobo. Deputatlikka chog'langanmishsan, shu rostmi?

Gulxadicha. Ha, Jo'qorg'i Kengesga.[4]

Tahlil: NA = f(LT + IPK + DI + IKK)

LT (lisoniy tuzilma): so'roq gap + qisqa tasdiq javob

IPK (illokutiv-pragmatik kuch): Orol bobo → direktiv (axborot talab qilish)

Gulxadicha → representativ (tasdiqlash)

DI (diskursiv interaksiya): muloqotni boshlash

IKK (ijtimoiy-kognitiv kontekst): ota – nazoratchi, qiz – ehtiyotkor

Natija: ochiq kommunikativ boshlanish

2-dialog: Jiydaliy. Tursuniy ukajon, qachondan beri so‘rayman deb doim faromush qilaman-a. Bu, Tursun degich manzil qay viloyatda o‘zi?

Tursuniy. Tursun — mening otim-ku, qanaqa manzil?! Unaqa joy borligini bilmayman men.[3]

Tahlil:

LT: so‘roq + inkoriy javob

IPK: Jiydaliy → direktiv (axborot so‘rash)

Tursuniy → representativ + ekspressiv (tushunmovchilik, hayrat)

DI: kommunikativ nomoslik (semantic misunderstanding)

IKK: taxallus vreal ism haqidagi bilim tafovuti

Natija: diskursda semantik xato tufayli nomuvofiqlik

Erkin A‘zam dialoglarida nutqiy aktlar ko‘pincha yashirin illokutiv kuchga ega bo‘lib, implikatura qatlamli orqali voqelanadi. Dialogik diskursda nutqiy aktlarning o‘ziga xos xususiyati ularni ko‘p qatlamli, pragmatik-diskursiv tizim sifatida talqin qilish zarurligini tasdiqlaydi.

- **Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).** Mazkur tadqiqotda dialogik diskursdagi nutqiy aktlarning pragmalingsvistik tabiati integrativ yondashuv asosida yoritib berildi. Tahlil shuni ko‘rsatdiki, nutqiy aktlar statik birliklar emas, balki lisoniy shakl, illokutiv kuch, diskursiv strategiya va ijtimoiy-kognitiv kontekstning o‘zaro ta‘siridan yuzaga keladigan dinamik tuzilmalardir.

Taklif etilgan **NA = f (LT + IPK + DI + IKK)** modeli nutqiy aktlarning ko‘p qatlamli mohiyatini tizimli ravishda talqin qilish imkonini berdi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, illokutiv kuch kontekstga qarab qayta talqin qilinadi, kommunikativ ma‘no esa ko‘pincha implikatura orqali yuzaga chiqadi, perllokutiv ta‘sir esa ijtimoiy-kognitiv moslashuv bilan belgilanadi.

Shu asosda nutqiy aktlarni tasniflashga asoslangan yondashuvdan ko‘ra, ularni o‘zaro bog‘liq pragmatik-diskursiv tizim sifatida talqin qilish samaraliroq ekanligi aniqlandi. Taklif etilgan model diskursning turli ko‘rinishlarini tahlil qilishda qo‘llash mumkin bo‘lgan umumiy tahliliy asosni taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A‘zam, E. (1980). Piyoda. Tashkent: G‘afur G‘ulom Publishing.
2. A‘zam, E. (1981). Anoyining jaydari olmasi. Tashkent: G‘afur G‘ulom Publishing.
3. A‘zam, E. Jannat o‘zi qaydadir (dramatik qissa) <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/>
4. A‘zam, E. Tanho qayiq yoxud devonaning orzusi. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/>
5. Austin, J. L. (1962). How to do things with words. Oxford University Press.
6. Bach, K., & Harnish, R. M. (1979). Linguistic communication and speech acts. MIT Press.
7. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some universals in language usage. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511813085>
8. Culpeper, J. (2011). Impoliteness: Using language to cause offence. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511975752>
9. Dynel, M. (2011). Stranger than fiction? Brno Studies in English, 37(1), 41–61. <https://doi.org/10.5817/BSE2011-1-3>
10. Fairclough, N. (1992). Discourse and social change. Polity Press.
11. Fairclough, N. (2003). Analysing discourse. Routledge.
12. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In Syntax and semantics (Vol. 3). Academic Press.
13. Hakimov M. O‘zbek pragmalingsvistikasi asoslari. – Toshkent.: Akademnashr, 2013. – B. 120.
14. Haugh, M. (2013). Im/politeness and social practice. Journal of Pragmatics, 58, 52–72. <https://doi.org/10.1016/j.pragma.2013.08.003>
15. Kádár, D. Z., & Haugh, M. (2013). Understanding politeness. <https://doi.org/10.1017/CBO9781139382717>

16. Lakoff G. Pragmatics in natural logic. – Formal semantics of natural language. – Cambr., 1975, – P. 171.
17. Leech, G. (1983). Principles of pragmatics. Longman.
18. Levinson, S. C. (1983). Pragmatics. Cambridge University Press.
19. Mey, J. L. (2001). Pragmatics: An introduction. Blackwell.
20. Rahimov U. Lisoniy presuppozitsiya / A.G‘ulom va o‘zbek tilshunosligi: Ilmiy ishlar to‘plami. – Toshkent, 2004.
21. Searle, J. R. (1969). Speech acts. Cambridge University Press.
22. Searle, J. R. (1976). A Classification of Illocutionary Acts. *Language in Society*, 5(1), 1–23.
23. Searle, J. R. (1979). Expression and meaning. Cambridge University Press.
24. Searle, J. R., & Vanderveken, D. (1985). Foundations of illocutionary logic. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511625237>
25. Tannen, D. (2007). Talking voices. Cambridge University Press.
26. Van Dijk, T. A. (2008). Discourse and context. <https://doi.org/10.1017/CBO9780511481499>
27. Van Dijk, T.A. Discourse as Structure and Process. 1997.
28. Verschueren, J. (1999). Understanding pragmatics. Arnold.
29. Wodak, R., & Meyer, M. (2016). Methods of critical discourse studies. <https://doi.org/10.4135/9781473957660>
30. Крылов С. А. К типологии дейксиса // Лингвистические исследования. — Ч. 1. — М., 1984.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА
INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000